

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI FAOLIYATIDA TA'LIM
TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA ILMIY TADQIQOTLARNING
AMALIYOT BILAN INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH CHORA-TADBIRLARI
TO'G'RISIDA**

Arxitektura va qurilish sohasida malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, ilm-fan va amaliyatning o'zaro uyg'unligini barqaror ta'minlash, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy qurilishning yangi yo'nalishlari uchun ilmiy yechimlarni ishlab chiqish maqsadida qaror qilaman:

I. Maqsadlar

1. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti faoliyatida erishiladigan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilansin:
 - (a) dual ta'lism shaklini to'liq joriy qilish orqali ta'lism jarayonlarining amaliyot bilan integratsiyasini ta'minlash;
 - (b) 2029-yilda dunyoning nufuzli Quacquarelli Symonds (QS) va Times Higher Education (THE) tashkilotlari reytinglarida sohalar bo'yicha birinchi 1000 talik ro'yxatdagi oliy ta'lism tashkilotlari qatoriga kirish;
 - (v) o'quv va boshqaruva jarayonlarini to'liq raqamlashtirish;
 - (g) ilmiy salohiyatni eksport qilish doirasida 2028-yil yakuniga qadar Universitet brendini shakllantirib, xorijiy davlatlardan kamida 1 000 nafar talabani jalb qilish;
 - (d) 2026/2027 o'quv yiliga qadar ta'lism jarayonlarini tashkil etish, laboratoriyalarni jihozlash va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun kamida 10 million dollar miqdorida investitsiyalar jalb qilish.

II. Universitetda ta'lism berish jarayonlarini takomillashtirish.

2. 2025/2026 o'quv yilidan boshlab Toshkent arxitektura-qurilish universitetida (keyingi o'rinnarda — Universitet) o'qitishning dual ta'lism shakli joriy etilsin.
Belgilansinki, dual ta'lism dasturi kredit-modul tamoyili asosida bakalavriat bosqichining:
 - (a) **birinchi kurs talabalari uchun** — ta'lism dasturlarining 60 foizi (nazariy qismlari) auditoriyalarda, 40 foizi (amaliyot qismi) qurilish sanoati korxonalarida;
 - (b) **ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi kurs talabalari uchun** — ta'lism dasturlarining 40 foizi (nazariy qismlari) auditoriyalarda, 60 foizi (amaliyot qismi) qurilish sanoati korxonalarida o'tkaziladi.

3. Universitetga qurilish sanoati korxonalarida kafedralar filiallarini tashkil etish va ta'lism dasturlarining nazariy qismini ishlab chiqarish jarayoni orqali o'qitishga ruxsat etilsin. Bunda:

- (a) talabalarga dars berish uchun amaliyotda faoliyat yuritayotgan tegishli yo'nalishlardagi tajribali mutaxassislar Universitet kafedralari va ularning filiallariga jalb qilinadi;
- (b) tegishli qurilish sanoati korxonalarini faoliyatidagi dolzarb masalalarga oid talabalarning kurs loyihalari, bitiruv malakaviy ishlari va diplom loyihalari, magistrant va doktorantlarning dissertatsiyalari ushbu tashkilotlar vakillari ishtirokida muhokama qilinadi;
- (v) Universitet kafedralarining professor-o'qituvchilari o'quv reja va dasturlarini qurilish sanoati korxonalarini mutaxassislarini bilan birgalikda doimiy takomillashtirib boradi.

4. Shunday tartib o'rnatisinki, unga muvofiq:

- (a) 2025-yil 1-sentabrdan boshlab loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari elektron reytinglarida arxitektura, qurilish va muhandislik yo'nalishlari bo'yicha har oyda kamida 30 nafar talaba (izlanuvchi) yoki o'quvchi amaliyot o'tashi bo'yicha ko'rsatkich kiritiladi hamda buning uchun tashkilotlarga qo'shimcha 0,5 ball beriladi;

(b) amaliyot o‘tayotgan talaba, o‘quvchi va izlanuvchilar ma’lumotlari tegishli ta’lim tashkiloti tomonidan “Shaffof qurilish” va “HEMIS” axborot tizimlarining integratsiyasi doirasida yetkaziladi.

5. 2025/2026 o‘quv yildan boshlab o‘quv yili rejalashtirilishi jarayonida tegishli ta’lim dasturlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlarining kamida 25 foizini xorijiy professor, xalqaro sertifikatga ega professional mutaxassislar tomonidan o‘tkazish nazarda tutilishi belgilansin.

6. 2025-yil 1-sentabrdan boshlab tajriba-sinov tariqasida “maktab — texnikum (litsey) — universitet” tamoyili asosida kadrlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilsin. Belgilansinki, tajriba-sinov amaliyoti doirasida:

(a) Toshkent shahri Yunusobod tumani 250- va 273-sonli umumta’lim maktablari Universitetga biriktiriladi va Universitet:

(i) har oyda bir marotaba 7 — 9-sinf o‘quvchilarini ularning qiziqishlari doirasida geometriya, chizmachilik, fizika fanlarining arxitektura, dizayn, muhandislik va sun’iy intellektga oid mavzularini Universitet laboratoriyalarda darsdan tashqari mashg‘ulot sifatida o‘qitadi va shu orqali ularni tegishli texnikumlarga tayyorlash choralar ko‘riladi;

(ii) o‘quvchilarning Universitet laboratoriyalariga xavfsiz borib kelishlarini ta’minkaydi;

(b) Universitet huzuridagi akademik litsey va texnikumlar o‘quvchilari Universitet kafedralariga biriktirilib:

(i) ular uchun har oyda kamida bir marotaba Universitet laboratoriyalarda amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi;

(ii) Universitetga kirish imtihonlari fanlari bo‘yicha qo‘srimcha onlayn mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

III. Universitet faoliyatini raqamlashtirish

7. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Universitetning o‘quv va boshqaruv jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin. Belgilansinki, birinchi bosqichda 2025/2026 o‘quv yildan boshlab:

(a) Universitetda ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish doirasida:

(i) sun’iy intellekt texnologiyalari orqali o‘quv jarayonlari va amaliy mashg‘ulotlar tahlili olib boriladi, aniqlangan ko‘rsatkichlar asosida dars jarayonlari sifatini oshirish choralar ko‘riladi;

(ii) talabalar va magistrantlar ishtiroyida ta’lim dasturlari sifati va ularni o‘qitish uslubi bo‘yicha onlayn so‘rovnomalar o‘tkazilib, takliflar asosida doimiy takomillashtirib boriladi;

(iii) talabalar va magistrantlarning ta’lim jarayonlarida ishtiroy etishini onlayn kuzatish va qayd qilish tizimi yo‘lga qo‘yiladi;

(iv) kafedralar, fakultetlar va laboratoriylar uchun belgilangan samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish tahlili yuritiladi va ular shu asosda avtomatik baholanadi;

(b) Universitetda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish doirasida:

(i) qog‘oz shaklidagi hujjatlar almashinuvi to‘liq bekor qilinib, elektron shaklda amalga oshiriladi;

(ii) Universitet balansida mavjud barcha mol-mulkning yagona onlayn-elektron ro‘yxati yuritiladi;

(iii) xodimlar va professor-o‘qituvchilar belgilangan samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishishi tahlili hamda ular asosida ish haqi tayinlanishi inson omilisiz amalga oshiriladi;

(iv) sarflanayotgan mablag‘lar tegishli yil uchun tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasiga muvofiqligi hamda xarajatlar dinamikasi elektron nazorat qilinadi.

IV. Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga integratsiya qilish

8. Qurilish sohasida yangi ilmiy ishlanma va innovatsiyalarni sinovdan o‘tkazib, amaliyotga kiritishning mutlaqo yangi tartibini joriy qilish maqsadida 2025-yil 1-sentabrdan boshlab “Universitet — laboratoriya — korxona — vazirlik” ekotizimi (keyingi o‘rninda — Ekotizim) joriy etilsin. Ekotizim doirasida har yili:

(a) Universitet:

(i) hamkorlik qilayotgan qurilish sanoati korxonalaridan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha buyurtmalar qabul qilinishini;

(ii) talabalar, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar o'rtasida "Eng yaxshi 20 ta g'oya" tanlovini e'lon qilib, saralab olinishini;

(iii) g'olib loyihamalar bo'yicha laboratoriyalarda tadqiqotlar o'tkazilishini, uning natijalari Universitet Ilmiy-texnik kengashida muhokamadan o'tkazilib, buyurtmachi qurilish sanoati korxonalariga taqdim etilishini ta'minlaydi;

(b) Universitet va Savdo-sanoat palatasi ilmiy tadqiqot natijalari g'oya mualliflari va professor-o'qituvchilar ishtirokida qurilish sanoati korxonalari va obyektlarida sinab ko'rilishini ta'minlaydi;

(v) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha qurilish sohasidagi normativ hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi;

(g) Savdo-sanoat palatasi amaliyatga joriy etilgan ilmiy tadqiqotlar mualliflarini Savdo-sanoat palatasi Tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 35 baravari miqdorida moliyaviy rag'batlantiradi.

9. Belgilansinki, 2025-yil 1-sentabrdan boshlab:

(a) davlat oliy ta'lim tashkilotlarining arxitektura va qurilish yo'nalishidagi barcha laboratoriylari faoliyati Universitet tomonidan "UniLab" platformasi orqali Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ko'magida muvofiqlashtirib boriladi;

(b) hamkorlik va buyurtmalar doirasida kelib tushayotgan loyihamalar Universitet tomonidan laboratoriylar o'rtasida ularning ilmiy salohiyati va texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib, taqsimlanadi.

10. Universitet tuzilmasida amaldagi shtat birliklari doirasida Universitet rektori rahbarligida faoliyat yurituvchi Hududlarning arxitektura va shaharsozlik qiyofasini rivojlantirish markazi (keyingi o'rnlarda — Markaz) tashkil etilsin va uning asosiy vazifalari etib quydagilar belgilansin:

(a) "Aqli va xavfsiz shahar" modelini yaratish;

(b) jamoat parklari va ko'chalarning dizayn kodlarini ishlab chiqish hamda joriy etish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

(v) qurilish maydonlarini tartibga solish, aholi uchun noqulayliklar yaratuvchi salbiy omillarni bartaraf etish yechimlarini ishlab chiqish;

(g) aholi orasida qurilish madaniyatini shakllantirish, yakka tartibdagi uy-joylarni tartibli qurish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni targ'ib qilish;

(d) yangi qurilayotgan binolar maydonlarini o'lchash va xonalarini loyihalashning ilg'or metodikalarini ishlab chiqish;

(e) qurilish jarayonlari davomiyligini sifatni ta'minlagan holda qisqartirish bo'yicha ilmiy yechimlarni tayyorlash;

(j) jamoat binolari va ko'p kvartirali uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini loyihalashtirish;

(z) madaniy meros obyektlarini xatlovdan o'tkazish va restavratsiya qilish rejalarini ishlab chiqish;

(i) hududlardagi quruvchilar va muhandis-konstrukturlar uchun onlayn konsultatsiyalar hamda malaka oshirish kurslarini o'tkazish.

Belgilansinki, Markaz o'z faoliyatini tuman va shaharlar hokimliklari bilan, shu jumladan, xo'jalik shartnomalari asosida bevosita hamkorlikda olib borib, har chorakda yangi loyihalarni taqdim etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Markaz faoliyatini mahalliy hokimliklar bilan birlgilikda tashkil etishda Universitetga amaliy yordam ko'rsatib borsin.

11. Universitetning Markaz faoliyatini yo'lga qo'yish doirasida quydagi takliflariga rozilik berilsin:

- (a) professor-o‘qituvchilar va izlanuvchilarni tuman (shaharlar)ga biriktirish hamda reja-grafikka asosan tegishli hududlarda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish;
- (b) o‘rganishlar yakuniga ko‘ra, mahalliy hokimliklar bilan hududlarda binolar, jamoat parklari va ko‘chalarning milliy arxitektura qiyofasini yaratish bo‘yicha modellarni ishlab chiqish;
- (v) professor-o‘qituvchilarga oylik ish haqini belgilash doirasida ustamalarga hududlardan jalg qilingan har bir loyiha uchun qo‘srimcha samaradorlik ko‘rsatkichini kiritish, izlanuvchilarni moliyaviy rag‘batlantirish.

V. Nufuzli xorijiy oliv ta’lim tashkilotlari bilan talabalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish

12. Universitet va Germaniya Federativ Respublikasining Bauxaus-Veymar universiteti o‘rtasida o‘zaro hamkorlik doirasida:

(a) 2025/2026 o‘quv yildidan boshlab Universitetning bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari hamda doktorantlarining almashinuv dasturlari bo‘yicha Bauxaus universitetida tahlil olishiga;

(b) almashinuv dasturi bo‘yicha talabalar hamda doktorantlar safar xarajatlarini Universitetga ajratilayotgan xorijiy grant mablag‘lari hisobidan qoplashga ruxsat etilsin.

13. Universitet professor-o‘qituvchilarining sifatli malaka oshirishini tashkil etish maqsadida:

(a) har chorakda kamida bir marotaba Germaniya, Yaponiya, Malayziya, Polsha kabi davlatlar olimlari ishtiroykida seminarlar;

(b) har akademik yilda Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Italiya, AQSH, Rossiya, Xitoy, Malayziya kabi davlatlarga stajirovkalar tashkil etib borilsin.

Belgilansinki, professor-o‘qituvchilarining malaka oshirishini tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar tegishlicha grantlar va homiylik mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

VI. Arxitektura va qurilish sohasining yangi yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslarni yaratish

14. Universitet huzurida “Yashil” qurilish ilmi va texnologiyalarini joriy qilish kengashi (keyingi o‘rinlarda — Kengash) tashkil etilsin va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

(a) energotejamkor, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik qurilish materiallarini ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish;

(b) “yashil” standartlarni mintaqaning iqlim va ekologik sharoitlariga moslashtirish ilmini yaratish;

(v) “yashil” qurilish texnologiyalarini standartlashtirish va sertifikatlashtirish loyihalarini ishlab chiqish;

(g) “yashil” qurilish yo‘nalishida kadrlar tayyorlash yuzasidan takliflarni ishlab chiqish;

(d) shaharlar va massivlarni yashillashtirish modellarini yaratish.

15. Belgilansinki:

(a) Kengash tarkibi Universitet rektori tomonidan nufuzli xorijiy oliv ta’lim tashkilotlari professorlari, xalqaro sertifikatga ega mutaxassislar va boshqa olimlardan shakllantriladi;

(b) har chorakda mazkur yo‘nalishda yangi ilmiy ishlanmalarni amaliyatga tatbiq etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi;

(v) Kengash takliflari qurilish, ekologiya va energetika sohalariga mas’ul davlat organlari tomonidan konsilium shaklida ko‘rib chiqiladi hamda ularni amalga oshirish yuzasidan har yili qo‘sma harakatlar rejasiga tasdiqlanadi.

16. Arxitektura va qurilish sohasidagi mavjud muammolarning ilmiy yechimlarini amaliyatga joriy qilish maqsadida 2025-yil 1-avgustdan boshlab shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

(a) har chorakda Universitet professor-o‘qituvchilarini izlanuvchilarining qurilish sanoati korxonalarini vakillari bilan ochiq muloqoti tashkil etiladi;

(b) ochiq muloqot jarayonida qurilish sohasidagi muammolar va yangi yo‘nalishlar muhokama qilinadi, natijasi bo‘yicha yangi ilmiy yechimlarni joriy qilish yuzasidan Universitet va

ishlab chiqaruvchi hamda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida xo'jalik shartnomalarini tuzish imkoniyati yaratiladi;

(v) har yarim yilda:

(i) davlat buyurtmasi asosida respublika miqyosida qurilishi rejalashtirilgan xavflilik omili III-IV toifa bo'lgan obyektlar loyihalari Universitet huzuridagi Ilmiy-texnik kengashda talaba, magistrant va izlanuvchilar bilan muhokama qilinadi;

(ii) muhokamalarda yangi konstruktiv va seysmik yechimlar ishlab chiqilib, loyihalarni takomillashtirish bo'yicha takliflar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga taqdim etiladi;

(g) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi har yili 1-dekabrga qadar qurilish sohasida yangi konstruktiv yechimlar, normativ hujjatlar va muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish uchun Universitetga mavzular ro'yxatini taqdim etib boradi.

VII. Qaror ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

17. Quyidagilar:

(a) Toshkent arxitektura-qurilish universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" **1-iyoraga**;

(b) Toshkent arxitektura-qurilish universitetini 2030-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari **2-iyoraga** muvofiq tasdiqlansin.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi "Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-416-son **qaroriga 3-iyoraga** muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

19. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori B. To'laganov, oliv ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri K. Sharipov, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sh. Xidoyatov hamda Savdo-sanoat palatasi raisi D. Vaxobov belgilansin.

20. Qaror ijrosini nazorat qilish va ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2025-yil 1-iyul,
PQ-209-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-iyulda PQ-209-son **qaroriga**
1-ILOVA

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddatlari	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ullar
I. Toshkent arxitektura-qurilish universitetini rivojlantirish chora-tadbirlari					
1.	Toshkent arxitektura-qurilish universitetining (keyingi o'rinnlarda — Universitet) tashkiliy tuzilmasi va shtatlar jadvalini tasdiqlash.	1. Universitetning yangi ustavini ishlab chiqish, tasdiqlash va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish. 2. Universitet oldiga qo'yilgan yangi maqsadlar va vazifalar yuzasidan nufuzli xorijiy oliv ta'lim muassasalari	2025-yil dekabr	-	Universitet Kuzatuv kengashi, Universitet

		tajribalarini tahlil qilish hamda fakultetlar, umumkasbiy va mutaxassislik kafedralari, funksional bo‘limlar tarkibini qaytadan ko‘rib chiqish orqali Universitetning takomillashtirilgan tashkiliy tuzilmasi va shtatlar jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash.			
2.	Universitetni uzoq va o‘rtal muddatli strategik rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.	<p>1. Strategik rivojlantirish dasturi loyihasini ishlab chiqish hamda ekspertlar muhokamasidan o‘tkazish.</p> <p>2. Ishlab chiqilgan dastur loyihasini Universitetning Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlash.</p>	2025-yil dekabr	Universitet mablag‘lari	Universitet, Universitet Kuzatuv kengashi
3.	Universitetning moliyaviy barqarorligini yanada oshirish.	<p>1. Ta’lim, ilm-fan va uning natijalarini tijoratlashtirish bo‘yicha tijorat va notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.</p> <p>2. Universitetning 2026-yilda kutilayotgan daromadlari va xarajatlari to‘g‘risida proqnoz ko‘rsatkichlarni aniqlash.</p> <p>3. Milliy, xalqaro grantlar hamda homiylik va xayriya mablag‘larini jalb qilish.</p>	<p>Doimiy ravishda</p> <p>2025-yil dekabr</p> <p>Doimiy ravishda</p>	Universitet mablag‘lari	Universitet, Universitet Kuzatuv kengashi
4.	Universitetning 2026-yilga qadar xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning sohaviy yoxud mintaqaviy, 2030-yilga qadar global	<p>1. Universitetni xalqaro reytinglarga kiritish maqsadida uning faoliyatini tahlil qilish.</p> <p>2. Tahlil natijasida Quacquarelli Symonds (QS) va Times Higher</p>	<p>Doimiy ravishda</p> <p>2025-yil dekabr</p>	Universitet mablag‘lari	Universitet, Universitet Kuzatuv kengashi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

	reytingiga kirishiga erishish bo'yicha tizimli va samarali ishlarni olib borish.	Education (THE) xalqaro reytinglarida ishtirok etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 3. Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi ustidan monitoring yuritish.	Reja-jadval asosida		
5.	Universitetning soha yo'nalishlari bo'yicha nufuzli tashkilotlar bilan hamkorligini yo'lga qo'yish, Universitetning o'quv, ilmiy va boshqaruv jarayonlariga yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish.	1. Soha yo'nalishlari bo'yicha nufuzli mahalliy va xorijiy tashkilotlar hamda ularda faoliyat olib borayotgan yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish. 2. Nufuzli mahalliy va xorijiy tashkilotlardagi ilg'or texnologiyalar bilan tanishish hamda ularni o'quv va amaliyot jarayonlariga tatbiq etish bo'yicha kelishuvga erishish. 3. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni Universitetdagi o'quv va ilmiy jarayonlarga jalb etish.	Doimiy ravishda	Universitet mablag'lari	Universitet, manfaatdor vazirlik va idoralar, ish beruvchi tashkilotlar
6.	Xorijiy investitsiyalar va tashqi beg'araz ko'mak (grant) mablag'larini jalb etish va o'zlashtirish.	1. Universitetning investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida tegishli vazirlik va idoralarning ko'magini tashkil etish. 2. Xorijiy fondlar va agentliklar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish. 3. Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini tizimli yo'lga qo'yish va investitsiyalarni jalb qilish.	2025-yil sentabrdan boshlab	-	Universitet, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi
7.	Universitetda yoshlar o'rtasida	1. Yozgi maktablarni tashkil	2025-yil iyul	Universitet mablag'lari	Universitet,

	ilmiy va madaniy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.	etish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Yozgi maktablarni tashkil etishga doir xalqaro loyihalar bazasini shakllantirish va ularda talaba-yoshlar ishtirokini tashkillashtirish.	Doimiy ravishda		Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
8.	Universitetda ta’lim eksportini rivojlantirish.	1. Bino va inshootlarni loyihalash va dizayn yo‘nalishlarida Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya, Ummon, Quvayt, Ruanda va boshqa xorijiy davlatlarda loyihalar tenderlarida ishtirok etib, ilmiy salohiyatni eksport qilish va sohaga investitsiyalarni jalb qilish choralarini ko‘rish. 2. Har yili Buyuk Britaniya (shu jumladan, Xalqaro malakalar va baholash markazi hamda IQF tashkiloti hamkorligi doirasida), Germaniya, Italiya, Xitoy, Polsha, Belarus, Qozog‘istonning arxitektura va qurilish sohasidagi nufuzli oliv ta’lim tashkilotlari bilan kamida 200 nafar talaba va magistrantlar uchun almashinuv dasturlari yo‘lga qo‘yilishi bo‘yicha kelishuvlarni yakunlash.	2025-yil 1-avgustdan boshlab har yili 2025/2026 o‘quv yildan boshlab	Universitet mablag‘lari	Universitet

		3. Turli soha va yo‘nalishlarda, Universitet yoki Savdo-sanoat palatasining tashabbusiga ko‘ra, xorijiy davlatlar bozorlariga kirish doirasida Universitetga uning ilmiy salohiyatini eksport qilishi uchun arxitektura va qurilish sohasida xorijiy korxonalar bilan aloqalar o‘rnatishga amaliy yordam ko‘rsatib borish.	Har yili 1-dekabrga qadar	-	Savdo sanoat palatasi
--	--	---	---------------------------	---	-----------------------

9.	Universitetda o‘quv jarayonlarini sifatli tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.	Sobiq Toshkent mashinasozlik kasb-hunar kollejining Toshkent shahri, Yunusobod tumanining 14-mavzesida joylashgan bino-inshootlarini tegishli mol-mulki, jihozlari va vositalari bilan birgalikda operativ boshqaruv huquqi asosida Universitetga bepul o‘tkazish.	2025/2026 o‘quv yiliga qadar	-	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Universitet
----	--	--	------------------------------	---	---

II. Universitetda ta’lim jarayonlarini sifatli va samarali tashkil etish

10.	Universitet o‘quv-uslubiy hujjatlarini hamkor xorijiy oliy ta’lim muassasasi takliflari va xalqaro reyting tashkilotlarining bиринчи 300 talik ro‘yxatiga kirgan universitetlarning ta’lim dasturlari asosida ishlab chiqish.	1. Ta’lim dasturlarini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning amaldagi reytingida oliy ta’lim muassasalarining dasturlari asosida shakllantirish. 2. Tanlov fanlarini kadrlar buyurtmachilari bilan shakllantirish. 3. Ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, xorijiy tillarda o‘qitiladigan mutaxassislik fanlari sonini oshirish.	2025/2026 o‘quv yildan boshlab	-	Universitet, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
-----	---	--	--------------------------------	---	---

11.	Universitetning alohida guruqlarida darslarni xorijiy tillarda o'tkazishni tashkil etish.	<p>1. Ta'lim jarayoni xorijiy tilda o'tkaziladigan bakalavriat ta'lim yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklarini belgilash.</p> <p>2. Xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan professor-o'qituvchi va talabalarni saralab olish hamda talabalarga mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'qitish.</p>	2025/2026 o'quv yildan boshlab	-	Universitet, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
12.	Xorijiy davlatlarning oliy ta'lim muassasalarini bilan qo'shma ta'lim dasturlarini rivojlantirish.	<p>1. Xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olingan oliy ta'lim muassasalarini bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish.</p> <p>2. Qo'shma ta'lim dasturlari asosida tashkil etilgan ta'lim yo'naliishlari va mutaxassisliklarida o'quv jarayonini xorijiy tillarda tashkil etish.</p> <p>3. Qo'shma ta'lim dasturlari doirasida xorijiy talabalarni jalb qilish.</p>	2025/2026 o'quv yildan boshlab 2025/2026 o'quv yildan boshlab 2025/2026 o'quv yildan boshlab	Universitet mablag'lari, homiylik va xayriya mablag'lari	Universitet, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi
13.	Universitetda nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini va mutaxassislarini ulushini oshirish.	<p>1. Universitetga jalb qilingan xorijiy mutaxassislar mehnatiga haq to'lash miqdorlarini belgilash tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Universitetni xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingiga kiritish maqsadida o'quv va ilmiy jarayonlarga xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan yetakchi professor-o'qituvchilar hamda mutaxassislarni jalb qilish.</p>	2025-yil avgust 2025/2026 o'quv yildan boshlab	Universitet mablag'lari, grant mablag'lar	Universitet, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar

		3. Universitet buyurtmasiga binoan belgilangan tartibda Universitet xorijiy professor-o‘qituvchilariga hamda ularning oila a’zolariga: kirish vizalari belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini; ko‘p martalik vizalar rasmiylashtirilishi, berilishi va muddati uzaytirilishini, shuningdek, ularning vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilishi hamda muddati uzaytirilishini ta’minalash.	Zaruratga qarab		
14.	Universitet bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini (keyingi o‘rinlarda — ta’lim dasturlari) bosqichma-bosqich akkreditatsiyadan o‘tkazishga tayyorlash.	1. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha shartnomalar tuzish. 2. Xorijiy ekspertlar ishtirokida ta’lim dasturlarini xalqaro ta’lim talablariga moslashtirish. 3. Xalqaro ta’lim talablariga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish.	2025-yil dekabr 2026-yil may 2026/2027 o‘quv yildan boshlab	Universitet mablag‘lari	Ta’lim sifatini ta’minalash milliy agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet
15.	Universitet talabalari uchun tegishli ta’lim dasturlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar hamda malaka amaliyotlarini davlat organlari, davlat ulushiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi	1. Kadrlar tayyorlash yo‘nalishlarining xususiyatidan kelib chiqib, korxonalar va tashkilotlarda barcha talabalar amaliyotini tashkil etish bo‘yicha respublika hududlari kesimida talabalar taqsimot jadvalini ishlab chiqish.	Reja-jadval asosida	-	Universitet, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

	subyektlar, yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida o'tkazishni tashkil etish.	2. Talabalarni tegishli tashkilotlarga biriktirish va shartnomalar tuzish. 3. Taqsimot jadvalini tasdiqlash va talabalarni amaliyotga yuborish. 4. Amaliyot o'tagan talabalar bilimini baholash.			
16.	O'quv va ilmiy tadqiqot jarayonini zamonaviy darslik, o'quv qo'llanma va adabiyotlar, shuningdek, ilmiy nashrlar, o'quv-uslubiy, ilmiy metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash, talabalarga ilg'or elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanish uchun sharoit yaratish.	1. O'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonini tegishli o'quv va ilmiy-metodik qo'llanmalar hamda ilmiy nashrlar bilan ta'minlash choralarini ko'rish. 2. Universitet axborot-resurs markazini ilg'or xorijiy elektron ma'lumotlar bazalariga ulash hamda talaba va pedagoglar uchun ushbu bazalardan bepul foydalanish imkoniyatini yaratish.	Doimiy ravishda	Universitet mablag'lari, grantlar, homiylik mablag'lari	Universitet, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
17.	Dual ta'lim shaklini joriy qilish bo'yicha zarur choralarni ko'rish.	1. Universitet kafedralarini hamkorlik doirasida qurilish sanoati korxonalariga biriktirish. 2. Tegishli oliy ta'lim tashkilotlari va ularning huzuridagi texnikumlar tomonidan qurilish sanoati korxonalarida amaliyot o'tayotgan talabalar, izlanuvchilar va o'quvchilar haqidagi ma'lumotlarni almashish uchun "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi va "HEMIS" — oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlarini o'zaro	2025-yil avgust	-	Universitet, hamkorlik doirasidagi qurilish sanoati korxonalari (<i>kelishuvga ko'ra</i>) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qurilish va uyjoy communal xo'jaligi vazirligi, Universitet va boshqa oliy ta'lim tashkilotlari

		integratsiyasini ta'minlash.			
18.	Shaharsozlik va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni maxsus maqsadli (amaliyotga yo'naltirilgan) magistraturada tayyorlash tizimini joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish.	Takliflarda quyidagilarni nazarda tutish: 1. Kompetensiyani rivojlantirish institutida mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun shaharsozlik va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalarida (yo'nalishlarida) kamida besh yillik ish stajiga ega bo'lgan oly ma'lumotli mutaxassislarni (diplomi bo'yicha mutaxassisligidan qat'iy nazar) to'lov kontrakt asosida maxsus maqsadli (amaliyotga yo'naltirilgan) magistraturada o'qitish amaliyotini yo'lga qo'yish bo'yicha asoslarni keltirish. Bunda quyidagilarni ko'zda tutish: talabgorlarni ish beruvchining (davlat tashkilotining yoki davlat ulushi mavjud korxonaning) tavsiyanomasi bilan suhbat asosida o'qishga qabul qilish; o'qishni maqbullashtirilgan kunduzgi yoki kechki ta'lim shakllarida tashkil etib, bir yil davomida nazariy fanlarni amaliyotga bog'lagan holda o'qitish; mutaxassisga o'qishni yakunlaganidan keyin uch yilgacha buyurtmachi (yoki	2025-yil iyul	-	Qurilish va uy- joy kommunal xo'jaligi vazirligi

		<p>uning tizimidagi tashkilot)da ishlab berish majburiyati yuklash.</p> <p>2. Mutaxassislarni maxsus maqsadli magistraturada tayyorlashni yo‘lga qo‘yish va o‘quv jarayonlarini tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish.</p>			
--	--	--	--	--	--

III. Universitetda ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash

19.	Universitetda ilmiy tadqiqot natijalarini nashr qilish, amaliyotga joriy etish, xalqaro va xorijiy ilmiy-tadqiqot loyihibarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish.	1. Universitetda ilmiy-tadqiqot, innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.	2025-yil avgust	Universitet mablag‘lari	Universitet, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, manfaatdor vazirlilik va idoralar
		2. Universitetda ilmiy-tadqiqot, innovatsion va iqtidorli talabalar, tadqiqotchilar bilan ishslash faoliyatini rivojlantirish maqsadida yuqori malakali konsultantlarni jalb qilish.	Doimiy ravishda		
		3. Yuqori malakali konsultantlar tomonidan professor-o‘qituvchilarga maslahat xizmatlarini ko‘rsatish va ochiq ma’ruzalar tashkil etish.	Reja-jadval asosida		
20.	Universitet ilmiy-tadqiqot faoliyatiga budgetdan tashqari mablag‘larni jalb etish samaradorligini oshirish.	<p>1. Davlat va xorijiy grantlar tanloviga ilmiy-tadqiqot loyihibarini tayyorlash va ularda ishtirok etish.</p> <p>2. Xo‘jalik shartnomalari asosida ishlar tashkil etish va mablag‘larni jalb etish.</p> <p>3. Ilmiy-tadqiqot loyihibarida ishtirok etgan o‘qituvchi va boshqa xodimlarni</p>	Doimiy ravishda	Grant mablag‘lari, xo‘jalik faoliyatidan tushadigan mablag‘lar	Universitet, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, manfaatdor vazirlilik va idoralar

		moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borish. 4. Har yilgi ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirishda arxitektura va qurilish sohasi bo'yicha maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalari amalga oshirilishini nazarda tutish.			
21.	Ilmiy-tadqiqot laboratoriylarini tashkil etish.	1. Mavjud barcha laboratoriya jihozlarini xatlovdan o'tkazish va ularning texnik holatini o'rganish. 2. Nufuzli xorijiy oliv ta'lim muassasalarida amalda foydalanilayotgan normativ hujjatlar asosida Universitetning ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari uchun qo'llanmalar ishlab chiqish va ulardan foydalanish. 3. Qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar bilan integratsiya aloqalarini kuchaytirish.	2025-yil dekabr 2026-yil aprel Doimiy ravishda	Universitet mablag'lari, homiylik, xayriyalari, grant mablag'lari	Universitet, manfaatdor vazirlik va idoralar
22.	Xalqaro hamkorlikni kengaytirish diversifikasiya qilish.	1. Dunyoning yetakchi universitetlari bilan samarali hamkorlikni kengaytirish. 2. Professor-o'qituvchilar va talabalar uchun yangi almashinuv dasturlarini tashkil etish. 3. Qo'shma xalqaro ilmiy-tadqiqot faoliyatini yo'lga qo'yish.	2025-yil sentabrdan boshlab	Universitet mablag'lari doirasida, homiylik, xayriyalari, grant mablag'lari	Universitet, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi
23.	Universitet talabalarining bandligini ta'minlash	1. Talabalarning kelgusida ishga joylashishini inobatga olgan holda haq	Har yili yanvar-fevral	-	Universitet, Oliy ta'lim, fan va

	ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash.	to‘lanadigan stajirovka (amaliyot) o‘tash joylarini aniqlashtirish. 2. Haq to‘lanadigan stajirovka (amaliyot)larni tashkil etadigan korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish. 3. Talabalarning stajirovka (amaliyot) o‘tashlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish choralarini ko‘rish.			innovatsiyalar vazirligi
--	------------------------------------	--	--	--	--------------------------

IV. Ilmiy tadqiqotlarning amaliyot bilan o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash

24.	Universitet professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari va talabalarini tegishli sohalarning ilmiy-texnik muammolariga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish.	1. Sohalarning ilmiy-texnik muammolari bazasini shakllantirish va doimiy yangilab borish. 2. Universitet professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari va talabalarini tegishli ilmiy-tadqiqot ishlariga biriktirish. 3. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini impakt faktori yuqori bo‘lgan xorijiy va mahalliy ilmiy jurnallarda chop etish hamda amaliyotga joriy etish.	Har o‘quv yilining sentabr-oktabr Doimiy ravishda	Vazirlik va idoralar mablag‘lari	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet
25.	Universitetda talabalar, magistrantlar va ilmiy tadqiqotchilarning ilmiy yangiliklarini qo‘llab-quvvatlash.	1. “Universitet-laboratoriya-korxona-vazirlik” ekotizimi konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Universitet kuzatuv kengashiga kiritish. 2. Universitet huzurida Qurilish-muhandislari uyushmasini tashkil qilish choralarini ko‘rish.	2025-yil avgust	-	Universitet, Savdo-sanoat palatasi, Universitet, Kuzatuv kengashi
26.		1. Platformani ishga tushirish va doimiy	2025-yil avgustdan	-	Universitet

	“UniLab” platformasini ishga tushirish.	faoliyatini ta’minlab borish. 2. Davlat oliy ta’lim tashkilotlarining arxitektura va qurilish yo‘nalishidagi barcha laboratoriyalari ro‘yxatini shakllantirish, ularning faoliyatini raqamlashtirib, platformaga ulanishini tashkil etish.	2025-yil avgustdan boshlab	-	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Universitet, tegishli laboratoriyalarga ega oliy ta’lim tashkilotlar
		3. Joriy qilinayotgan yangi amaliyot bo‘yicha ishlarni tashkil etishda Universitetga doimiy ko‘maklashib borish.	Doimiy ravishda	-	
27.	Universitet tuzilmasida yuridik shaxs tashkil etmagan holda Hududlarning arxitektura va shaharsozlik qiyofasini rivojlantirish markazi faoliyatini tashkil etish.	1. Markaz nizomini ishlab chiqib, uning shtat birliklarini belgilash. 2. Markaz mutaxassislari tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar mavzulari ro‘yxatini tasdiqlab, Markazning doimiy faoliyatini ta’minlab borish.	2025-yil sentabrdan boshlab doimiy	Universitet mablag‘lari	Universitet
28.	“Yashil” qurilish ilmi va texnologiyalarini joriy qilish kengashi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	1. Kengash tarkibini Universitet rektori tomonidan nufuzli xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari professorlari, xalqaro sertifikatga ega mutaxassislar va boshqa olimlardan shakllantirish. 2. Belgilangan yo‘nalishlarda yangi ilmiy ishlannmalarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni qurilish, ekologiya va energetika sohalariga mas’ul davlat organlari tomonidan konsilium	2025-yil sentabr 2025-yil oktabrdan boshlab har chorakda	Universitet mablag‘lari	Universitet

		shaklida ko‘rib chiqish uchun taqdim etish.			
29.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig‘iga ko‘ra, Universitetda mavjud barcha ilmiy salohiyat va laboratoriyalarni safarbar qilgan holda arxitektura va qurilish sohasida ilmiy tadqiqotlarni, shu jumladan, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda tashkillashtirish va ularni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha ilmiy yechimlarni ishlab chiqish.	<p>1. Quyidagi masalalar bo‘yicha ilmiy yechimlarni ishlab chiqish:</p> <p>yuqori mustahkamlikka ega va energiya tejamkor qurilish materiallarini ishlab chiqarish uskunasi (avtoklav)ning milliy ilmiy asoslarini yaratish;</p> <p>qurilish chiqindilarini qayta ishlash va ulardan qo‘sishma yangi mahsulot yaratish;</p> <p>yerosti va yerusti infratuzilma hamda kommunikatsiyalarning seysmik xavfsizligini ta’minlash;</p> <p>yangi qurilayotgan binolar sifatini zamonaviy texnologiyalar asosida inson omilisiz monitoring qilish;</p> <p>respublika hududidagi mavjud resurslar, xususan, cho‘l qumlaridan (barxan qumi) qurilish materiallarini ishlab chiqish;</p> <p>devor yoriqlarini inyeksiya va kompozit materiallar orqali bartaraf etib, bino mustahkamligini qayta tiklash;</p> <p>qurilish tannarxini binoning seysmik himoyasini ta’minlagan holda 30 foizgacha qisqartirish;</p> <p>Birlashgan Arab Amirliklari, Malayziya va Sloveniya</p>	2026-yil yanvar	-	Universitet

		<p>tajribalariga asosan “Aqlli va xavfsiz shahar” modelini yaratish;</p> <p>“Qurilishning hayot davomiyligi” tamoyilini keng joriy qilish.</p> <p>2. Mazkur masalalar doirasidagi ilmiy yechimlar natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimotni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish.</p>	2026-yil fevral		
--	--	---	-----------------	--	--

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-iyulda PQ-209-son qaroriga
2-ILOVA

**Toshkent arxitektura-qurilish universitetini 2030-yilga qadar rivojlantirishning
MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI**

T/r	Ustuvor vazifalar	Maqsadli ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar kesimida:				
				2026-yil	2027-yil	2028-yil	2029-yil	2030-yil
1.	Yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash	Ilmiy salohiyat (asosiy shtatdagi professor-o‘qituvchilar soniga nisbatan)	foizda	62	65	67	68	70
2.		Fan doktorlarining (DSc) himoya ko‘rsatkichi	nafar	8	8	8	10	10
3.		Falsafa doktorlarining (PhD) himoya ko‘rsatkichi	nafar	40	40	40	45	50
8.	Professor-o‘qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati natijadorligini oshirish	Darsliklar soni (nashr guvohnomalari)	dona	50	52	55	57	60
9.		O‘quv qo‘llanmalar soni (nashr guvohnomalari)	dona	75	77	79	80	85
10.		Monografiyalar soni	dona	80	82	84	86	90
11.		Patentlar soni	dona	10	11	12	13	15
12.		“Scopus”, “Web of Science” xalqaro ma’lumotlar bazasiga kiritilgan ilmiy	dona	100	110	120	130	150

		jurnallarda e'lon qilingan maqolalar soni						
13.		Respublika jurnallarida e'lon qilingan ilmiy maqolalar soni	dona	400	420	440	460	500
14.		"Scopus", "Web of Science" xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan ilmiy jurnallarda e'lon qilingan har bir maqolaga to'g'ri keluvchi iqtiboslar soni (jami maqolalar soniga nisbatan)	koeffitsiyent	1,1	1,2	1,3	1,4	1,5
15.		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron bazalar uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan turli materiallar soni	dona	22	24	27	30	35
16.	Ilmiy-tadqiqot faoliyati va ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyatga tatbiq etish asosida olingan mablag'lar hajmi	Xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari va fondlardan olingan mablag'lar	mlrd so'm	2	2,5	3	4	5
17.	Xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni kengaytirish	Davlat grantlari asosida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan mablag'lar	mlrd so'm	3,2	3,5	4	4,3	4,5
18.		Sohalar buyurtmasi asosida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan mablag'lar	mlrd so'm	6,2	6,8	7,5	8,0	8,5
19.		Jahonning yetakchi universitetlari va ilmiy markazlariga xizmat safarlariga yuboriladigan professor-o'qituvchilar soni	nafar	50	55	60	65	70
20.		Universitetga rivojlangan davlatlarning arxitektura va qurilish sohasida ilg'or tajribaga ega rivojlangan davlatlar professor-o'qituvchilari tashrifini tashkil etish	nafar	55	60	65	75	80

21.	Akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etuvchi talabalar soni	nafar	35	40	45	50	55
22.	Universitet professor-o‘qituvchilari xorijiy olimlar bilan hammualliflikda chop etgan maqolalari soni	dona	50	55	60	65	70
23.	Universitet talabalarining amaliyotlarini nufuzli xorijiy olyi ta’lim tashkiloti bazasida tashkil etish	nafar	40	42	44	46	48
24.	Xorijiy olyi ta’lim muassasalari talabalarining amaliyotini Universitet bazasida tashkil etish	nafar	50	52	54	56	60

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-iyuldaggi PQ-209-son qaroriga
3-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-416-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. 3-ilova o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
2. 7-ilova matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Kuzatuv kengashining TARKIBI

1. O.Q. Abduraxmanov — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari, *Kuzatuv kengashi raisi*
2. Q.A. Sharipov — olyi ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri, *Kuzatuv kengashi raisi o‘rinbosari*
3. Sh.S. Xidoyatov — qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri, *Kuzatuv kengashi raisi o‘rinbosari*
4. D.A. Vaxobov — Savdo-sanoat palatasi raisi
5. Sh.A. Ayupov — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti
6. S.Z. Mirzayev — Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti
7. F.J. Po‘latov — Kadastr agentligi direktori
8. B.A. To‘laganov — Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori
9. V.A. Ismoilov — Fanlar akademiyasining Seysmologiya instituti direktori
10. Y.D. Magrupov — “O‘ZGASHKLITI” Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot, shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti bosh direktori (*kelishuv asosida*)
11. *Lavozimi bo‘yicha* — “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi raisi
12. B.X. Elmurodov — “O‘zshaharsozlikLITI” DUK bosh direktori
13. R.S. Sharipov — “ToshkentboshplanLITI” DUK bosh direktori o‘rinbosari

14. A.A. Sanginov — “O‘zbekgidroenergo” AJ boshqaruv raisi
15. I.I. Isroilov — “Discover invest” MCHJ ta’sischisi (*kelishuv asosida*)
16. A.A. Akbarjonov — “O‘zsanoatqurilishbank” ATB boshqaruv raisi
17. *Lavozimi bo‘yicha* — “Golden House Development” MJCH direktori (*kelishuv asosida*)
18. B.A. Askarov — Toshkent arxitektura-qurilish universiteti professori
19. X.X. Xomidov — Buyuk Britaniyaning “IQF — Integrated Qualifications Framework” instituti “International Partnerships” yo‘nalishi bo‘yicha direktori (*kelishuv asosida*)
20. *Lavozimi bo‘yicha* — Toshkent arxitektura-qurilish universiteti birinchi prorektori, *Kuzatuv kengashi kotibi*

Izoh: Universitetning Kuzatuv kengashi tarkibi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Kuzatuv kengashi a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan, zarur hollarda, uning tarkibiga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritilishi mumkin”.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.07.2025-y., 07/25/209/0559-son)